



**Rayhona RAXMATOVA,**  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com

SamDU professori, f.f.d M.Davronova taqrizi asosida

## VOICE FROM BEYOND THE BORDER: MYSTERIOUS SYMBOLS IN THE STORIES OF ZULFIYA KUROLBOY KIZI

Annotation

The stories of Zulfiya Kuroloy qizi, one of the bright representatives of Uzbek literature, are known for their illumination of problematic issues in Uzbek literature. The article is devoted to the analysis of mysterious symbols found in the writer's stories, their semantic and artistic aspects. The mysterious episodes presented in Z. Kuroloy's daughter's stories "The Woman in the Image of Death" and "Old Women Leading to Death" and their impact on the hero's psyche are analyzed in a comparative aspect. In the story, the writer's high skill is shown through the images he created.

**Key words:** Mysterious voice, flower-faced woman, Mulla Ashur, loneliness, dream, fear, barn, gallows, death, old women, bride, Farida, etc.

## ГОЛОС ИЗ-ЗА ГРАНИЦЫ: ТАИНСТВЕННЫЕ ПЕРСОНАЖИ В РАССКАЗАХ ЗУЛЬФИИ КУРОЛБОЙ КИЗИ

Аннотация

Рассказы Зульфии Куролбой кизи, одной из ярких представительниц узбекской литературы, известны тем, что освещают свои проблемные вопросы в узбекской литературе. Статья посвящена анализу таинственных символов, встречающихся в рассказах писательницы, их содержательных и художественных аспектов. Сравнительно проанализированы загадочные эпизоды, представленные в рассказах З.Куролбой кизи "Женщина в образе смерти" и "Старухи, ведущие к смерти" и их влияние на психику героя. В рассказе высокое мастерство писателя показано через созданные им образы.

**Ключевые слова:** Таинственный голос, женщина с цветным лицом, Мулла Ашур, одиночество, сон, страх, хлев, виселица, смерть, старухи, невеста, Фариди и т.д.

## CHEGARA ORTIDAN KELGAN OVOZ: ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDAGI SIRLI TIMSOLLAR

Annotatsiya

O'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan bo'lmish Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari o'zbek adabiyotida o'zining muammoli masalalarini yoritishi bilan ma'lum. Maqola adibaning hikoyalari uchraydigan sirli timsollar, ularning mazmuni va badiiy jihlatlarini tahlil etishga bag'ishlanadi. Z.Qurolboy qizining "Ajal qiyofasidagi ayol" hamda "O'limga yetaklovchi kampirlar" nomli hikoyalari keltirilgan sirli epizodlar va ularning qahramon ruhiyatiga ta'siri qiyosiy jihatdan tahlilga tortilgan. Hikoyada yozuvchining yuksak mahorati uning yaratgan obrazlari orqali ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sirli ovoz, gul yuzli ayol, Mulla Ashur, yolg'izlik, tush, qo'rquv, og'irlona, dor, o'lim, kampirlar, kelin, Farida va b.q.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyati, o'lim va hayot orasidagi nozik nuqta va chegaralarni badiiy talqin etish muhim mavzulardan biri sanaladi. Ayol qahramonlar ruhiyatini ko'rsatishda samarali ijod qilayotgan yozuvchilardan biri Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari adabiyotshunoslikda o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu maqolada yozuvchining bir-biriga o'xshash bo'lgan ikki "Ajal qiyofasidagi ayol" hamda "O'limga yetaklovchi "kampirlar" nomli hikoyalari badiiy tahlil qilingan. Yozuvchi o'z hikoyalari o'limni shunchaki biologik hodisa sifatida ko'rsatmaydi, balki uni chuqur falsafiy va ramziy obraz sifatida namoyon qilishga harakat qilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizining asarlari bugungi kun o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega. Ayniqsa, uning qator hikoyalari tahlil jihatidan mukammalligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining hikoyalari tahlil qilish orqali ayol ruhiyatining turli nuqtalarini aks ettirishda qator ilmiy izlanishlar ishlar olib borilmoqda. Yozuvchi hikoyalari bo'yicha D.Abdullayeva, M.Jo'rayevalar fan nomzodliklarini yoqlashgan. Qolaversa, Saydullayeva D., Nabijonova R., Egamberdiyeva K., Raxmatova R. kabilar o'z maqolalarida ayol ruhiyatining turli qirralarda namoyon bo'lishini tahlil orqali yoritib berishga harakat qilishgan. Undan tashqari ayol ichki olami, ruhiy

iztirob va o'y-kechinmalarini tahlil qilishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada asosiy metod sifatida tahliliy-yondashuv metodi qo'llaniladi. Zulfiya Qurolboy qizining "Ajal qiyofasidagi ayol" va "O'limga yetaklovchi "kampirlar" nomli hikoyalari mazmuni, psixologik va badiiy tahlil asosida o'rganiladi.

**Tahlil va natijalar.** O'lim inson hayotida doimiy qo'rquv va sirli tushuncha bo'lib kelgan. Yozuvchining hikoyalari esa, o'lim qahramonlar oldida ayol va kampirlar ko'rinishida namoyon bo'lgan.

"Ajal qiyofasidagi ayol" nomli hikoyasida Mulla Ashurning ko'ziga ko'ringan "loladek qizarib turgan..." yuzli ayol Mulla Ashur o'limiga sababchi qilib ko'rsatilgan. Hikoya voqealariga ko'ra, Mulla Ashur qishloqning eng kuchli duxonlaridan biri. Damining o'tkirligi ovozi hattoki, qo'shni qishloqlarga ham tarqalgan. Hammaga shifo tilaydigan mulla o'zining dardiga shifo topolmas edi. Ikki marta uylangan bo'lsa ham befarzand edi. Kunlarning birida uning yoniga bir ayol kelib farzand uchun tumor qilib berishini so'raydi. Shu paytda negadir mulla uning "loladek qizarib turgan yuzi"ga qarab qolganini o'zi ham sezmay qoladi. Shu bilan uning ko'ziga hadeganda "loladek qizarib turgan yuzli ayol" ko'rinaveradi. Mulla o'zidan qo'rqib ketib

toat-ibodat qilishga tushadi. Biroz yengillashgach, yana shu hol takrorlanaveradi. Daraxt ortida, uy yonida, burchakda, hovlida tinimsiz unga ko'rinish beravergan ayol, oxiri uxlab yotgan vaqtida kelib olib ketgani kelganini aytadi.

"...Tun yarmidan oqqanida, endi ko'zi ilingan mullani kimdir ohista turtgandek bo'ldi. Erinib ko'zlarini ochgan mulla yonginasida o'tirgan ayolni ko'rib hushi boshidan uchdi. O'rnidan turmoqchi bo'di. Ammo ayol: "Yotavering..." degandek yelkasini silab qo'ydi.

Bu o'sha! Mullaning ko'ziga loladek qizarib ko'ringan, aql-u hushini o'g'irlagan sohibjamol edi!

Keldingmi?.. – dedi mulla bazo'r, negadir uning nafas olishi qiyinlashib borayotgandi.

Ha, - deya shivirladi ayol ovozigga sirli tus berib.

Lohas yotgan vujudiga ilohiy kuch enib, qoni gupura boshlagan mulla ayolning belidan quchib, o'ziga tortdi. Ayol egilib, mullaning ko'ksiga bosh qo'yarkan, yana o'shanday sirli ovozda shivirladi:

Olib ketgani keldim...

...Ertasi kuni kechga yaqin to'ydan to'lib-toshib qaytgan Xonimbuvi erini jonsiz holda ko'rib baqirib yubordi. [3]

Hikoya so'ngida ajal mullaning tinimsiz ko'ziga ko'ringan loladek qizarib turgan yuzli ayol qiyofasida kelgani o'quvchiga ma'lum bo'ladi. Mazkur hikoyada ajal tushunchasi an'anaviy ma'noda o'lim tushunchasi emas, aksincha ruhiy yemirilish va umidsizlik ramzi, qolaversa, ichki iztirob ramzi sifatida gavdalantirilgan. Mullaning yolg'izligi va umidsizligi uning ich-ichini qanchalik yemirayotganini ko'rsatishga uringan muallif aynan ayol qiyofasida ajalni tanlagani bejiz emas.

Faqatgina farzand uchun tumor qilib berishni so'ragan ayol mullaning e'tiboriga tushib qoladi va tinimsiz uning ko'ziga ko'rinaveradi. Ayol real hayotda emas, faqatgina mullaning, ongida namoyon bo'laveradi. Mulla esa, xayoli bilan hayotni chalkashtirib yuboradi va tavba-tazarru qilishga tushaveradi. Ammo ayol ayol uning xayolini butunlay egallab olgan edi. Hikoyaning keskin nuqtasi ham ajalning aynan ayol qiyofasida namoyon bo'lishidir. Muallif bunda o'limnin qo'rqinchli hodisa sifatida namoyon qilmay, balki sekin va muqarrar yaqinlashuvchi kuch sifatida ko'rsatgan. Ajal insonning qocha olmaydigan taqdirining nihoyasidir.

Hikoyadan anglash mumkinki, ajal e'tiqod yoki mansab, bilim yoki yosh tanlamaydi. Inson va ajal o'rtasidagi munosabatlar badiiy ramzlar orqali yoritib berilgan. "Ajal qiyofasidagi ayol" o'quvchini o'ylashga, hayotning o'tkinchi ekanligi haqida fikr yuritishga undaydigan falsafiy ma'nodagi hikoyadir.

Zulfiya Qurolboy qizining "O'limga yetaklovchi kampirlar" nomli hikoyasi ham o'zining sirli timsollari mavjudligi, o'lim qo'rquv sifatida emas, balki tushga o'xshash yoqimli hodisa sifatida namoyon bo'lishi bilan "Ajal qiyofasidagi ayol" nomli hikoyasiga o'xshab ketadi. Ammo yuqorida tahlil qilingan hikoyadan farqli ravishda bunda qahramon hayoti o'lim bilan yakun topmaydi. Aksincha, hikoyada tasvirlangan holat qahramonning vizual gallyutsinatsiyalar bilan kechuvchi ichki ruhiy buzilishlari ifodasidir. Hikoya davomida oila kelini bo'lgan Farida tinchgina kelinlik xizmatini qilib yuradi. Ammo birdaniga uning yurish-turishi o'zgarib qoladi, harakatlarida qandaydir tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Buni sezgan qaynota bo'lishi mumkin bo'lgan dilxiralikning oldini olish uchun kelinning onasini chaqirtirib u bilan maslahatlashib o'qitib keladi. Biroz vaqt hammasi yaxshidek tuyuladi. Ammo oy kuni yaqinlashib qolgan kelinning harakatlari yana bejo bo'la boshlaydi. Buni sezgan Nosir amaki falokatning oldini olish va kelinini qutqarib qolish maqsadida og'ilxonada tayyorlab qo'yilgan dorga bir ola qo'zini osib qo'yadi va o'zi bilganicha duolarni o'qiydi. Shundan keyin Faridaning ahvoli ancha

yaخشilanadi. Bolali bo'lgach kampirlar uning ko'ziga umuman ko'rinmaydi:

...O'sha voqeadan keyin uyga kiribman-u, qotib uxlabman, – dedi Farida kulimsirab. – Dadam bechora tushliksiz goldilar. Kechga yaqin uyqudan qushdek yengil bo'lib turdim.

Zokir quvonganidan o'zini tutib turolmadi. Xotinini quchoqlab, bag'riga bosarkan hayajon bilan pichirladi:

Xudoga shukr!..

Qaynotasining sharofati bilan omon qolgan Farida vaqti-soati yetib farzand ko'rdi. Uning ko'zlarini juda chiroyli, ayni damda jiddiy boqardi. Bolali bo'lgandan keyin kampirlar kelinchakni bezovta qilmay qo'yishdi. Go'yo, Faridaning himoyachisi – o'g'lidan qo'rqishganday...[4]

Ushbu hikoyada ham ajal aynan ayol, ya'ni kampirlar qiyofasida namoyon bo'lgan. Hikoya markazida turgan Faridaning ruhiy holati va ichki qo'rquvlari kampirlar vositasida ochib berilgan. Muallif bu orqali ichki qo'rquv salbiy holatlarga olib kelishi mumkinligini badiiy ifodalagan. Hikoya voqealari tahlil qilinganda, Faridaning holati vasvasa kasalligi bilan bog'lanadi. Hikoya psixologik jihatdan tahlil qilinganda, bu kasallik ko'pincha qo'rqinchli, ammo real bo'lmagan narsa va shaxslarning ko'zga ko'rinishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Xalqona til bilan aytilganda esa, xalq og'zaki ijodida ajal qiyofasida aynan kampirlarning namoyon bo'lishi, yovuz, jodugarlar ham aynan ayol yoki kampir qiyofasida ko'rinishi doston va ertaklardan ma'lum. Muallif ana shu xalqona, doston va ertaklarda uchraydigan holatni zamonaviy ruhiy muammo vasvasa bilan uyg'unlashtirgan.

E'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muhim jihatlardan yan biri, Faridani bu holatdan qutqarib qolgan kishining aynan qaynotasi ekanligi. Boisi, qaynota obrazi – hayotiy tajriba timsoli bo'lib kelgan. Unda hushyorlik va mehning ifodasi yaqqol namoyon bo'lib turadi. Faridaning holatini vaqtida anglab uni jar yoqasidan (o'limdan) qutqab qoladi. Bu orqali yozuvchi kitobxonga insonning hech bir holatga befarq qaramasligi kerakligini uqtiradi. Yangi tug'ilgan chaqaloq esa, hayot ramzi bo'lib kelgan. Farida farzandi dunyoga keltirishi bilan ruhiy barqarorlikka erishadi va vasvasadan qutuladi. Qaynotasi qutqarib qolgan bo'lsa-da, farzand tug'ilgach, Faridada onalik instikti shakllanib, hayotiy kuch o'z-o'zini qutqarishi namoyon bo'lgan.

**Xulosa va takliflar.** Yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizining "O'limga yetaklovchi kampirlar" va "Ajal qiyofasidagi ayol" nomli hikoyalari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, inson ruhiyati, uning ma'naviy inqirozini badiiy jihatdan ifodalagan asar deya baholash mumkin. Muallif har ikki hikoyani tasvirlashda oddiylikdan chekingan holda, qahramonlar ruhiyatini chuqur yoritib berishga harakat qilgan. Birinchi hikoyada yozuvchi ayolning ajal qiyofasida kelishini badiiy jihatdan go'zal qiyofada, chiroyli tasvirlar orqali ko'rsatgan. O'limni qo'rqinchli fojia sifatida emas, balki kelishi muqarrar bo'lgan oddiy holat sifatida tasvirlagan. Mulla Ashurning ruhiy tushkunligi va ma'naviy yolg'izligi uning hayotini qanday izdan chiqargani ta'sirchan tarzda namoyon bo'lgan.

Keyingi hikoyada esa, kampirlar obrazi orqali o'lim belgilari, turli asossiz xavotirlarning inson ruhiyatiga ta'siri badiiy jihatdan yoritib berilgan. Mazkur hikoyada kampirlar an'anaviy donishmand, mehribon qariya, xonadonning fayzli insoni sifatida tasvirlanmagan, balki xonadon kelini bo'lgan Faridaning ko'ziga ko'ringan qo'rqinchli xayol mahsuli va salbiy obraz sifatida namoyon bo'lgan. Bu bilan yozuvchi jamiyatdagi eskicha qarashlarni, noto'g'ri talqin esa, asossiz qo'rquv va ruhiy bosimning kuchayishiga sabab bo'lishini ko'rsatishga uringan. Tinimsiz shu xayol bilan yashagan kishining ruhiy muvozanati buzilishi natijasida, o'z hayoti ustidagi nazoratni yo'qotib qo'yishi va uning halokat sari

qadam qo'yishi mumkinligini, buning natijasida turli salbiy oqibatlarining kelib chiqishini yozuvchi yuksak mahorat bilan ifodalagan.

Umuman olganda har ikki hikoya ham inson ongini uyg'otishga, uni turli asossiz qo'rquv va xayollardan ogohlantirishga qaratilgan deyilsa ham, noo'rin bo'lmaydi. Hikoya orqali yozuvchi o'quvchilarni mushohada qilishga undaydi. Z.Qurolboy qizi o'z hikoyalari orqali o'limni shunchaki biologik hodisa va yakun sifatida tasvirlamaydi, balki kishi ruhiyatining ma'naviy tanazzuli va yemirilishi

sifatida ko'rsatishga uringan. Hikoyani o'qish va uni tahlil qilish jarayonida o'quvchiga hayotning boride va borligicha qadriga yetishga undaydigan jihatlari ham yo'q emas. Inson qilayotgan har bir qarori ustida jiddiy bosh qotirishi kerakligi, uning oqibati haqida o'ylashi kerakligi ham uqtiriladi. Bu bilan yozuvchi o'quvchini mas'uliyatga ham chorlaganini ko'rish mumkin.

Yuqorida tilga olingan fikr va xulosalarni umumiydastirib aytish mumkinki, hikoyalar nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Adabiyot nazariyasiga kirish. – Toshkent: Fan, 2019. – 240 b.
2. Karom B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
3. Qurolboy qizi Z. Ayol: hikoyalar to'plami. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. Qurolboy qizi Z. Yovuzlik farishtasi: hikoyalar to'plami. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005, 260 b.